XALQ DEPUTATLARI OQOLTIN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Yangi davr MFY Beg‘ubor ko‘chasi 2-uy +998 67 243 1001 oqoltin.t@exat.uz

2024-yil 20-noyabr VII-2-020-9-122-K/24 Oqoltin tumani

Oqoltin tumani ma‘muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan vedeoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yo‘l xaritasi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan vedeoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastragentligining 2024-yil 11-martdagi Sirdaryo viloyati hokimligiga yuborilgan 04/08-2328-sonli xat orqali yuborilgan ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Oqoltin tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil “14” oktabrdagi 03-1/03-147-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Oqoltin tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilgan materiallarga asosan Sirdaryo tumani bilan chegaradosh bo‘lgan Mirzaobod va Sardoba tumanlari o‘rtasidagi chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman ma’muriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizig‘i hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yo‘l va boshqa tabiiy va sun’iy obyektlar) saqlab qolinishi bo‘yicha Kadastr agentligining tuman bo‘limi boshlig‘i U.Baxromovga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Makur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Kengash raisi

ERNAZAROV
KOMILJON
YULDASHALIYEVICH

Xalq deputatlari Oqoltin tumani
Kengashining
2024-yil 20-noyabrdagi
VII-2-020-9-122-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining
T A V S I F I

Qozogʻiston Respublikasi, Oqoltin va Mirzaobod tumanlarining chiziqlari kesishgan joy, zovur boʻyida joylashgan nuqta boshlangʻich 1 - nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°40'32,756", sharqiy uzoqlik koordinatalari 68°14'53,718").*

A dan B gacha Qozogʻiston Respublikasi yerlari bilan 1 - 2 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan 2-nuqtagacha chegara chizigʻi davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish boʻyicha mavjud chegara chizigʻi boʻyicha olindi. *(shimoliy kenglik 40°34'29,743", sharqiy uzoqlik 68°29'26,330").*

B dan D gacha Mirzaobod tumani yerlari bilan 2 - 10 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

2-nuqtadan chegara chizigʻi janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 250 metr masofani oʻtadi, keyin zovurdan quruq zovurga oʻtib janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1185 metr masofada Markaziy Mirzachoʻl zovuriga tutashadi va umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1772 metr masofani oʻtib, suv oʻtkazgichda joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'52,338", sharqiy uzoqlik 68°28'59,884").*

3 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda Markaziy Mirzachoʻl zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3099 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'39,402", sharqiy uzoqlik 68°30'28,284").*

4 – nuqtadan chegara chizigʻi janubiy-sharqiy yoʻnalishda Markaziy Mirzachoʻl zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2329 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 786 metr, soʻngra janubiy-sharqiy yoʻnalishda 629 metr masofani oʻtadi, soʻng toʻgʻri chiziq orqali janubiy yoʻnalishda A-373 avtomobil yoʻli koʻprigini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'08,111", sharqiy uzoqlik 68°32'05,358").*

5 – nuqtadan chegara chizigʻi A-373 avtomobil yoʻli koʻprigining janub tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 883 metr masofada R-33 avtomobil yoʻliga oʻtadi va yoʻlning janub tomoni bilan umumiy gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 483 metr masofani oʻtib, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 5112 metr masofani oʻtib yoʻl

bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'11,606", sharqiy uzoqlik 68°28'34,130").*

6 – nuqtadan chegara chizig‘i R-33 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 3943 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'41,023", sharqiy uzoqlik 68°26'36,085").*

7 – nuqtadan chegara chizig‘i R-33 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 745 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 607 metr masofada R-31 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'05,854", sharqiy uzoqlik 68°26'03,785").*

8 – nuqtadan chegara chizig‘i avval R-33 avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 101 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 70 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'05,447", sharqiy uzoqlik 68°25'57,107").*

9 – nuqtadan chegara chizig‘i R-33 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 79 metr masofada Chap tarmoq kanalini kesib o‘tib, Oqoltin, Mirzaobod, Sardoba tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, yo‘l bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'03,384", sharqiy uzoqlik 68°25'55,150").*

D dan E gacha Sardoba tumani yerlari bilan 10 - 14 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

10 – nuqtadan chegara chizig‘i R-33 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 174 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 360 metr masofani o‘tib, so‘ng to‘g‘ri chiziq orqali g‘arbiy yo‘nalishda 30 metr masofada yo‘lni kesib o‘tadi va zovurga tutashadi, so‘ngra zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 206 metr, keyin zovurni kesib o‘tadi va janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 235 metr masofani o‘tib, so‘ng zovurni kesib o‘tadi va ariqqa tutashadi, so‘ngra ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 464 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'48,430", sharqiy uzoqlik 68°25'24,876").*

11 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 64 metr, keyin yo‘lni kesib o‘tadi va ariqqa tutashadi, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 450 metr masofada zovurga o‘tib, so‘ngra zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 571 metr masofada zovurni kesib o‘tib, Chap tarmoq kanali bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'11,999", sharqiy uzoqlik 68°25'13,116").*

12 – nuqtadan chegara chizig‘i Chap tarmoq kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 7050 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 13-nuqtga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27'18,934", sharqiy uzoqlik 68°20'27,122").*

13 – nuqtadan chegara chizig‘i Chap tarmoq kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 5966 metr masofani o‘tib, M-39 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'15,441", sharqiy uzoqlik 68°16'24,973").*

14 – nuqtadan chegara chizig‘i M-39 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, Chap tarmoq kanaliga o‘tadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 7120 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 5 metr masofani o‘tib, Jizzax viloyati hamda Oqoltin, Sardoba tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, kanal bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'19,831", sharqiy uzoqlik 68°11'34,914").*

E dan A gacha Jizzax viloyati yerlari bilan 15 - 1 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

15 - nuqtadan chegara chizigʻi Chap tarmoq kanalining suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 4726 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'52,638", sharqiy uzunlik 68°08'18,890").*

16 - nuqtadan chegara toʻgri chiziq orqali Chap tarmoq kanalini kesib oʻtib, 11-K-3-4 zovuriga tutashadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 5453metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 3699 metr masofada GK oʻng irmoq kanalini kesib oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'14,957", sharqiy uzunlik 68°10'50,296").*

17 - nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1768 metr masofani oʻtib, avtomobil avtomobil yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda
111 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'33,332", sharqiy uzunlik 68°11'47,188").*


18 - nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlidan 7-markaziy zovuriga oʻtadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 1596 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'24,881", sharqiy uzunlik 68°11'49,673").*

19 - nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali 7-markaziy zovurini kesib oʻtib, beton lotokka tutashadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda beton lotokning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 481 metr masofani oʻtib, 19-K-6 zovuriga oʻtadi va zovurning suv oqimi va tomoni oʻzgarmagan holda 11680 metr masofani oʻtib, Qozogʻiston Respublikasi va Jizzax viloyati hamda Oqoltin tumani chegara chiziqlari kesishgan joy, Abay zovuri boʻyida joylashgan boshlang‘ich 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°40'32,756", sharqiy uzunlik 68°14'53,718").*

Xalq deputatlari Oqoltin tumani
Kengashining
2024-yil 20-noyabrdagi
VII-2-020-9-122-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Sirdaryo viloyati Oqoltin tumanining
ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik

CHIZMASI



Shartli belgilar

Oqoltin tumanining ma'muriy-hududiy chegara chizig'i

1 *Oqoltin tumani ma'muriy-hududiy*